



## **BIZNESNI BIRLASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Davletov Ikram Raximberganovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Buxgalteriya hisobi kaferasi dotsenti,  
PhD*

**E-mail:** [i.davletov@tdiu.uz](mailto:i.davletov@tdiu.uz)

**ORCID:** <https://orcid.org/0000-0002-8311-7890>

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss4/i10](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss4/i10)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada yuridik shaxslarni birlashtirishning normativ-huquqiy asoslari tadqiq qilingan. Jumladan, yuridik shaxslarni qo'shib yuborish va qo'shib olish shakllarida birlashtirishning mohiyati, huquqiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq qilingan. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq qo'shib yuborish shaklida biznesni birlashtirishda bajariladigan ishlar ketma-ketligi shakllantirilgan. Shuningdek, qo'shib olish shaklida biznesni birlashtirish jarayonida topshirish dalolatnomasi va topshirish balanslarining tarkibiy qismlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qayta tashkil etish, birlashtirish, qo'shib olish, qo'shib yuborish, topshirish dalolatnomasi, topshirish balans.

### **Аннотация**

В данной статье исследуется нормативно-правовая база слияния юридических лиц. В частности, изучены сущность, правовые и организационные аспекты объединения юридических лиц в форме слияния и присоединения. В соответствии с действующими нормативно-правовыми документами сформирована последовательность работ, выполняемых при слиянии предприятий в форме присоединения. Также в процессе объединения бизнеса в форме присоединения были проанализированы состав передаточного акта и передаточного баланса.

**Ключевые слова:** реорганизация, объединение, присоединение, слияние, передаточный акт, передаточный баланс.

### **Abstract**

This article explored the regulatory framework for the merger of legal entities. In particular, studied the essence, legal and organizational aspects of the association of legal entities in the form of merger and accession. In accordance with the current regulatory and legal documents, formed a sequence of works performed during the merger of enterprises in the form of accession. Also, in the process of business combination analyzed in the form of accession, the composition of the transfer act and transfer balance.

**Key words:** reorganization, association, accession, merger, transfer act, transfer balance.

### **Kirish (Introduction)**

Rivojlangan xorij mamlakatlarida, masalan, AQSh, Yevropa davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy davlatlarida yuridik shaxsni qayta tashkil etish va tugatish o'ziga hos murakkab tomonlari va strategik ahamiyatni o'z ichiga oladi. Xususan, Mergers and

consolidations (*birlashish va birlashtirish*). Bunda ikkita mustaqil yuridik shaxs birlashtiriladi. Ularning huquq va majburiyatlari hamda debitor va kreditorlar oldidagi huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlari lozim bo'ladi. Recapitalization (*qayta tashkil etish*) asosan moliyaviy inqirozga duch kelgan kompaniyalar va hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Davlatning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ishtiroki 55 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Janubiy Koreyada 22 foiz, Germaniyada 18 foiz, AQShda 11 foiz, Yaponiyada 5 foizni tashkil qiladi [11].

Shu munosabat bilan «2021 – 2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh qilish Strategiyasi» ishlab chiqilgan. Unda ta'kidlanishicha, «Bugungi kunda respublikamizda 2 692 ta davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlari, shundan 1 133 ta davlat unitar korxonasi, 1 124 ta mas'uliyati cheklangan jamiyati va 241 ta aksiyadorlik jamiyati iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko'rsatadi. Respublikadagi mavjud 599 ta aksiyadorlik jamiyatlaridan 42 foizida davlat ulushi bo'lib, jami aksiyalarning 84 foizi davlatga tegishli, aholining atigi 2 foizidan ortig'i aksiyalarga egalik qiladi» [5]. Mazkur Strategiyada belgilanishicha, davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish (foiz), shuningdek istiqbolsiz, faoliyat ko'rsatmayotgan, zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli davlat ishtirokidagi korxonalarini tugatish (dona) mos ravishda 2021-yilda – 30 %, 245 ta; 2023-yilda - 65 %, 477 ta; 2025-yilda - 75 %, 0.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning liberallashtirilishi va raqobatning kuchayishi biznes subyektlarini qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) hamda tugatish holatlarining ko'payishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitlarda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim choralaridan biri biznesni birlashtirish hisoblanadi.

Bunday operatsiyalarni amalga oshirishning qonuniyligi normativ-huquqiy ta'minotga bog'liq bo'lib, turli mamlakatlarda kompaniyalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish turlicha qoidalar asosida amalga oshiriladi. O'zbekistonda yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari mustaqillik erishishi va bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan shakllana boshladi hamda iqtisodiyotning liberallashuvi oqibatida rivojlanib bormoqda. Bu yuridik shaxslarni qo'shib yuborish va qo'shib olish shaklida qayta tashkil etishga ham taalluqlidir.

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

O'zbekistonlik mutaxassislardan K.B.Urazov va J.A.Abdurasulovlarning ishlarida korxonalarini qayta tashkil qilish shakllarining mohiyati, xususiyatlari va ularni amalga oshirish tartiblari nazariy jihatdan tadqiq qilingan hamda korxonalarini qayta tashkil etish sharoitida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni shakllantirishga qo'yiladigan umumiy talablar ko'rsatib berilgan [9, 10].

L.D. Kapronova va Y.O.Zazulyalar tomonidan korxonalarini qo'shib olish va birlashtirish bo'yicha bitimlarni boshqarishning iqtisodiy va normativ-huquqiy jihatlari o'rganilgan hamda bunday bitimlar, birinchi navbatda aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish zarurligi ko'rsatilgan [7].

R.D.Dusmuratovning ishlarida biznesni qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil etishning normativ-huquqiy va tashkiliy-uslubiy jihatlari o'rganilgan hamda topshirish dalolatnomasi, topshirish balansi, dastlabki va yakuniy balanslarni tuzish tartiblari taklif qilingan [8].

#### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Tadqiqot jarayonida yuridik shaxslarni tugatishga doir normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar o‘rganildi va tahlil qilindi, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 50-moddasining 1-bandiga muvofiq: «yuridik shaxslar qo‘shib yuborilganida ulardan har birining huquq va burchlari (*majburiyatlari – D.I.*) topshirish hujjatiga (*dalolatnomasiga – D.I.*) muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o‘tadi» [1]. Demak, bir nechta korxonalar qo‘shib yuborilganida **yangi yuridik shaxs** tashkil bo‘lib, unga topshirish dalolatnomasiga muvofiq, mazkur korxonalar faoliyati tugatilishi bilan ularning barcha huquq va majburiyatlari o‘tadi. Ushbu yangi yuridik shaxs barcha tugatilayotgan korxonalarining huquqiy vorisi hisoblanadi (1-jadval).

**1-jadval**

### **Yuridik shaxslarni qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish**

<i>Matematik ifodasi</i>	<i>Qo‘shib yuborishning mohiyati</i>
<b>A + B = S</b>	<b>A va B</b> korxonalar o‘z faoliyatlarini to‘xtatadilar, ularning huquq va majburiyatlari yangidan tashkil etilgan <b>S</b> korxonaga o‘tadi

Yurisprudensiya nuqtai nazaridan, qo‘shib yuborishga doir operatsiyalar natijasida ikkita yuridik shaxs faoliyati tugatilib, ularning aktivlari va majburiyatlari birlashtiriladi, qo‘shib olishda esa, bitta korxonalar iqtisodiy jihatdan baquvvat boshqa bir korxonaga qo‘shilib, o‘zining faoliyatini tugatadi. So‘nggi holatda qo‘shib olinayotgan korxonalar huquqiy jihatdan o‘zining yuridik maqomini yo‘qotgani bilan, uning aktivlari va majburiyatlari qo‘shib oluvchi korxonaning biznesida davom etadi.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning ushbu shakllari (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish) normativ-huquqiy hujjatlarda batafsil yoritilishiga qaramasdan, O‘zbekiston Respublikasida keng tarqalmagan. Buni izohlaydigan bir necha sabablarni keltirish mumkin.

Birinchi, korxonalarini qo‘shib yuborish va qo‘shib olish shakllarida qayta tashkil etish yetarli darajadagi murakkab tartib-taomillarga rioya qilinishini talab etadi. Qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish ishlarini amalga oshirish chog‘ida qayta tashkil etilayotgan korxonalar qonunchilikda ko‘zda tutilgan barcha zarur rasmiyatchiliklarga qat‘iy rioya qilishlari lozim. Eng avvalo, bu korxonaning qayta tashkil etishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarining umumiy majlisini bir necha marta o‘tkazish va rasmiylashtirish zarurati bilan bog‘liq. Yuridik shaxsni qayta tashkil etish qoidalarining rad etilishi bu jarayonni yakunlashning imkonsizligiga yoki keyinchalik e‘tirozlar bildirilishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayonni amalga oshirish qonunosti normativ hujjatlar bilan ham mustahkamlangan bo‘lishi lozim.

Xususan, 23-sonli BHMSning 23-bandiga muvofiq: «Qayta tashkil etishda aktivlar va majburiyatlarning topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi bo‘yicha bir korxonadan boshqa korxonaga huquqiy vorislik tartibida topshirilishiga buxgalteriya hisobi maqsadlarida aktivlar va majburiyatlarning chiqib ketishi sifatida qaralmaydi» [6].

Qo‘shib yuborishda ishtirok etayotgan har bir korxonaning ta‘sischi (aksioner, ishtirokchi)lari majlis o‘tkazib, qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va buni bayonnoma bilan rasmiylashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda 310-II-son «Mas‘uliyati

cheklangan hamda qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi qonunining 50-moddasiga muvofiq: «O‘z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir necha jamiyatning barcha huquqlari va majburiyatlarini o‘tkazish yo‘li bilan yangi jamiyatni tashkil etish jamiyatlarning qo‘shib yuborilishi deb e‘tirof etiladi. Qo‘shib yuborish shaklidagi qayta tashkil etishda ishtirok etuvchi har bir jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi ana shunday qayta tashkil etish to‘g‘risida, qo‘shib yuborish shartnomasini va qo‘shib yuborish natijasida tuzilayotgan jamiyatning ustavini tasdiqlash to‘g‘risida, shuningdek topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi» [2].

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-son «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonunining 93-moddasiga muvofiq: «Yangi yuridik shaxsning unga o‘z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir necha jamiyatning barcha huquqlari va majburiyatlarini o‘tkazish yo‘li bilan vujudga kelishi aksiyadorlik jamiyatlarining yoxud aksiyadorlik jamiyati va mas‘uliyati cheklangan jamiyatning qo‘shib yuborilishi deb e‘tirof etiladi. Aksiyadorlik jamiyatini yuridik shaxslar bilan boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda qo‘shib yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi» [3].

Shuningdek, ushbu moddaga muvofiq: «Qo‘shib yuborishda ishtirok etayotgan jamiyat qo‘shib yuborish haqida shartnoma tuzadi, unda qo‘shib yuborish tartibi va shartlari, shuningdek har bir jamiyat aksiyalarini (ulushlarini) yangi yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo‘yiladi. Har bir yuridik shaxsning kuzatuv kengashi yoki vakolatli organi qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi, qo‘shib yuborish shartnomasini tasdiqlash haqidagi va topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalalarni qo‘shib yuborishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi» [3].

Amaldagi qonunchilik va qonunosti normativ hujjatlarning tegishli normalari asosida yuridik shaxslarni qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish jarayonida bajariladigan ishlar ketma-ketligi ishlab chiqiladi (2-jadval).

**2-jadval**

**Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etishda bajariladigan ishlar ketma-ketligi**

T/r №	Bajariladigan ishlar	Kim tomonidan bajariladi	Muddatlari	Taxminiy kalendar grafigi
1	Qo‘shib yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilish	Mulkdorlar	Mulkdorlar qaroriga ko‘ra	29.11.2024-y.
2	Qayta tashkil etishning boshlanishi to‘g‘risida manfaatdor shaxslarni xabardor qilish	Qo‘shib yuborishda ishtirok etadigan har bir korxonalar	Qayta tashkil etilayotgan korxonalarining so‘nggisi o‘z qarorini qabul qilgan sanadan boshlab 30 kun davomida	30.11.2024-y.
3	Qayta tashkil etish boshlangani to‘g‘risida OAVda yoki yagona davlat interaktiv davlat xizmatlari portalida e‘lon qilish	Mulkdorlar qarori bilan	Qayta tashkil etilayotgan korxonalarining so‘nggisi o‘z qarorini qabul qilgan sanadan boshlab 30 kun davomida	30.11.2024-y.
4	Aktivlar va majburiyat-larni inventarizatsiya qilish	Qo‘shib yuborishda ishtirok etadigan har bir korxonalar	Topshirish dalolatnomasini tuzishdan oldin	03.12.2024-y. – 21.12.2024-y.gacha
5	Aktivlar va majburiyatlarni baholash	Qo‘shib yuborishda ishtirok etadigan har bir korxonalar	Topshirish dalolatnomasini tuzishdan oldin	21.12.2024-y. – 24.12.2024-y.gacha
6	Yakuniy moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzish	Qo‘shib yuborishda ishtirok etadigan har bir korxonalar	Qo‘shib yuborilayotgan korxonalar faoliyati tugatilganligi to‘g‘risida	24.12.2024-y. – 29.12.2024-y.

T/r №	Bajariladigan ishlar	Kim tomonidan bajariladi	Muddatlari	Taxminiy kalendar grafigi
		bir korxonaga	risida TSYDRga yozuv kiritilgunga qadar	y.gacha
7	Topshirish dalolatnomalarini tuzish	Har bir qo‘shib olinayotgan korxonaga	Hisobot tuzish yakunlari bo‘yicha	29.12.2024-y.
8	Qo‘shib yuborish to‘g‘risida shartnoma tuzish va yangi korxonaning ta‘sis hujjatlarini tayyorlash	Qo‘shib yuborishda ishtirok etayotgan barcha korxonalar	Avvalgi bosqichlar bilan parallel ravishda	30.12.2024-y.gacha
9	Qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnoma va topshirish dalolatnomalarini tasdiqlash	Mulkdorlar	Qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnoma va topshirish dalolatnomalari tayyorlangandan so‘ng	30.12.2024-y.
10	Qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnoma va topshirish dalolatnomalarini tasdiqlash bo‘yicha qo‘shma majlis o‘tkazish	Mulkdorlar	Qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada belgilanadi	30.12.2024-y.
11	Yangi korxonani ro‘yxatdan o‘tkazish	Yangi korxonaning ijro organi	Qo‘shma majlis o‘tkazilgan sandan boshlab 30 kun davomida	02.01.2025-y.
12	Yangi korxonaning dastlabki balansini tuzish	Yangi korxonaning buxgalteriyasi	Yangi korxonaga ro‘yxatga olinganidan so‘ng	02.01.2025-y.

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar qoidalaridan ko‘rinib turibdiki, AJ va MChJ qo‘shib yuborish shaklida yagona jamiyatga qayta tashkil etish mumkin. Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etishda xususiy korxonalarining ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ta‘kidlash joizki, agar jamiyatning ta‘sischisi bir kishi bo‘lsa, u bitta o‘zi qaror qabul qiladi.

Yangidan vujudga kelayotgan yuridik shaxsning ustavini tasdiqlash va kuzatuv kengashini saylash qo‘shib yuborishda ishtirok etayotgan jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo‘shma umumiy yig‘ilishida amalga oshiriladi. Jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo‘shma umumiy yig‘ilishida ovoz berish tartibi yuridik shaxslarni qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada belgilab qo‘yiladi.

Yuridik shaxslar qo‘shib yuborilgan taqdirda ularning har biriga tegishli barcha huquq va majburiyatlar topshirish dalolatnomasiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o‘tadi.

So‘ngra 23-son BHMSning 7-bandiga muvofiq ta‘sischilarning qarorida quyidagilar belgilanishi mumkin:

«a) aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish muddatlari;

b) huquqiy vorislik tartibida topshiriluvchi (qabul qilinuvchi) aktivlar va majburiyatlarni baholash usuli;

v) topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi tasdiqlanganidan keyin qayta tashkil etilayotgan korxonaning joriy faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan aktivlar va majburiyatlarning o‘zgarishi munosabati bilan huquqiy vorislik tartibi, shuningdek muayyan xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirish (kreditlar va qarzlarni olish yoki berish, investitsiyalarni amalga oshirish va b.)ning alohida tartibi;

g) yangi vujudga kelgan yoki qayta tashkil etilayotgan korxonalarining ta‘sis hujjatlarida aks ettirish uchun ustav kapitalini shakllantirish tartibi va uning miqdori;

d) aksiyadorlardan aksiyalarni sotib olishga (xarid qilishga) yo‘naltirish zaruriyati yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olgan holda, qayta tashkil etilayotgan korxonaga hisobot davrida va o‘tgan yillarda olgan sof foydani yo‘naltirish (taqsimlash), shartli va kafolatlangan

majburiyatlarni hisobdan chiqarish (oqibatlarni baholagan holda tan olish) va b.» [6].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 50-moddasining 2-bandiga muvofiq: «Yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo‘shilganida, bu yuridik shaxsga qo‘shilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari (*majburiyatlari – D.I.*) topshirish hujjati(*dalolatnomasi-D.I.*)ga muvofiq o‘tadi» [1]. Demak, qo‘shib olish shaklidagi qayta tashkil etishda bir yoki bir nechta korxonalar boshqa korxonaga qo‘shilgan holda alohida yuridik shaxs sifatida mavjud bo‘lishini to‘xtatadilar. Bunda ham o‘z faoliyatini tugatgan yuridik shaxslarning barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga asosan qo‘shib oluvchi korxonaga zimmasiga o‘tkaziladi (3-jadval).

**3-jadval.**

**Yuridik shaxslarni qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish**

<i>Matematik ifodasi</i>	<i>Qayta tashkil etish mohiyatining bayoni</i>
$A + B + S = A$	«B» va «S» korxonalar o‘z faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlari «A» korxonaga o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda 310-II-son «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi qonuning 49-moddasiga muvofiq: «Jamiyatni qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran, jamiyat qo‘shib yuborish yoki birlashtirish shaklida qayta tashkil etilganda esa bu haqda qo‘shilishda yoki birlashtirishda ishtirok etayotgan jamiyatlardan oxirgisi tomonidan qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay jamiyat bu haqda jamiyatning o‘ziga ma‘lum barcha kreditorlarini yozma ravishda xabardor qilishi va qabul qilingan qaror haqida ommaviy axborot vositalarida xabar e‘lon qilishi shart. Bunda jamiyat kreditorlari o‘zlariga xabarnomalar yuborilgan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida yoki qaror qabul qilingani to‘g‘risida xabar e‘lon qilingan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida jamiyatning tegishli majburiyatlari muddatidan ilgari tugatilishini yoki bajarilishini va ko‘rgan zararlarining o‘rni qoplanishini yozma ravishda talab qilishga haqlidir» [2].

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-son «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonunining 92-moddasiga muvofiq: «Qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay jamiyat o‘z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi. Kreditor jamiyatdan majburiyatlarni tugatishni yoki muddatidan ilgari bajarishni hamda zararlarining o‘rnini qoplashni quyidagi muddatlarda yozma ravishda xabardor etish orqali talab qilishga haqli:

qo‘shib yuborish, qo‘shib olish yoki o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e‘tiboran **o‘ttiz** kundan kechiktirmay;

bo‘lish yoki ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e‘tiboran **oltmish** kundan kechiktirmay» [3].

Demak, qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalarning so‘nggisi qayta tashkil etilishi to‘g‘risida o‘z qarorini qabul qilgan sanadan boshlab 30 kun davomida, ulardan har biri qayta tashkil etishning boshlangani to‘g‘risida, qandaydir o‘zaro hisob-kitoblari mavjud bo‘lgan, o‘z kontragentlarini xabardor qilishi lozim.

Bundan tashqari, qayta tashkil etishning boshlangani to‘g‘risida quyidagi vositalar

orqali ham xabardor qilish mumkin:

- bosma OAV yoki internet - OAV;
- yagona davlat interaktiv davlat xizmatlari portalida: my.gov.uz [4].

Yanada aniqroq aytganda, 23-son BHMSning 10-bandi «g» quyi bandiga muvofiq: «qayta tashkil etilayotgan korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab mol-mulki va tegishli shartnomalar va kontraktlar bo‘yicha majburiyatlari, tegishli byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqalar bilan hisob-kitoblar huquqiy vorisga o‘tganligi haqida ularning kreditorlari va debitorlariga belgilangan muddatda (qayta tashkil etish haqida qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran 30 kundan kechiktirmay) yozma ravishda xabardor etganligi to‘g‘risidagi axborot ko‘rsatilgan kreditorlik va debitorlik qarzlari rasshifrovkasi (ularni xatlash hujjatlari) va b.» [6].

Shunday qilib, kontragentlar, shuningdek moliyaviy hisobotlar taqdim etiladigan tashkilotlar (DSI, statistika va b.) bilan hisob-kitoblarni tekshirish (taqqoslash) amalga oshirilib, natijalari taqqoslash dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-moddasi 2-bandiga muvofiq: «Qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning kreditori shu yuridik shaxsning qarzdor bo‘lishiga olib kelgan majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni hamda zararni to‘lashni talab qilishga haqli» [1]. Demak, kreditorlar qayta tashkil etish haqida qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran 30 kun ichida majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin to‘lab berilishini, hamda zararlar qoplab berilishini talab qilishga haqlidirlar.

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Shunday qilib, topshirish dalolatnomasi yuridik shaxslarni qayta tashkil etishda muhim hujjat hisoblanadi va uning umuman (yoki talab darajasida) tuzilmasligi yangidan vujudga kelgan korxonalar)ni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishining rad etilishiga olib keladi.

Shu bois, ushbu hujjatning mohiyati, huquqiy maqomi va tarkibiy tuzilmasiga batafsilroq to‘xtalamiz. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy va o‘quv-uslubiy manbalarda topshirish dalolatnomasi va topshirish balansi bir xil hujjat sifatida talqin qilinib, ularning farqli jihatlari ochib berilmagan.

Fikrimizcha, topshirish dalolatnomasi quyidagi tarkibiy qismlar(axborot bloklari)dan iborat bo‘lishi zarur:

a) qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi umumiy axborotlar (to‘liq nomlari, tashkiliy-huquqiy shakllari, qayta tashkil etish turi – qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish, qayta tashkil etish uchun asos – ta‘sischilar qarori, yuqori tashkilot qarori va b., vorislik huquqi);

b) topshirish balans(lar)i (qayta tashkil etishda ishtirok etayotgan yuridik shaxs(lar)ning mol-mulki, xususiy kapitali va majburiyatlari to‘g‘risidagi axborotlar);

v) topshirish balansiga tushuntirish xati (topshirilayotgan mol-mulklar, xususiy kapital va majburiyatlarning o‘zgarish sodir bo‘lgan moddalariga tushuntirishlar beriladi).

Demak, topshirish dalolatnomasi va topshirish balansi umumiylik bilan xususiylik nisbatida, ya‘ni so‘nggisi birinchisining tarkibiy qismi (aniqrog‘i, axborot ta‘minoti) bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189>

2. O‘zbekiston Respublikasining 06.12.2001-yil 310-II-son «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi qonuni, <https://lex.uz/docs/22525>.

3. O‘zbekiston Respublikasining 06.05.2014-yil O‘RQ-370-son «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonuni, <https://lex.uz/docs/2382409>.

4. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizam. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga 1-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-3111347>

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2021-y.dagi 166-son “2021 — 2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/5348948>

6. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish. 23-son BHMS, <https://lex.uz/docs/627304>.

7. Капранова Л.Д., Зазуля Е.О. Особенности развития рынка слияний и поглощений в России // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2014. №24. 18-55 стр. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-razvitiya-rynka-sliyanii-i-pogloscheniy-v-rossii>

8. Дусмуратов Р.Д. Бизнесни бирлаштиришда баланс тузиш: норматив-ҳуқуқий ва ташкилий-услубий жиҳатлар. “Рақамли иқтисодиёт шароитида фискал сиёсатни такомиллаштириш муаммолари” мавзусида Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Т.: ФИ., 2022. – 296-305 б.

9. Уразов К.Б., Абдурасулов Ж.А. Корхоналарни қайта ташкил этиш: моҳияти, шакллари, амалга ошириш тартиблари ва ушбу шароитда бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботни шакллантиришга қўйиладиган умумий талаблар. Иқтисод ва молия. 2021, №5 (141). 32-38 б. <https://itm.uz/wp-content/uploads/2022/04/5.Urazov.pdf>

10. Уразов К.Б., Абдурасулов Ж.А. Корхоналарни қайта ташкил этишни амалга ошириш шароитида бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботни шакллантиришнинг асосий қоидалари // Илм-фан ва инновацион ривожланиш / Наука и инновационное развитие. 2021. №4. 39-48 б. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korhonalarni-ayta-tashkil-etishni-amalga-oshirish-sharoitida-buhgalteriya-isobini-yuritish-va-moliyaviy-isobotni-shakllantirishning>.

11. Юридик шахсни қайта ташкил этиш ва тугатиш ўртасида ўзаро фарқ нималардан иборат? <https://fargona.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=38776>